

Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2017 yil yanvar-oktabr


Raqamlar:

- 2017 yil yanvar-oktabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 88250,3 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlar o'sish sur'ati 138,8 foizni tashkil qildi.
- Jami bozor xizmatlarida savdo xizmatlarning ulushi – 28,4 foiz.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining asosiy vazifa va yo'nalishlarini amalga oshirish jarayonida 2017 yil yanvar-oktabr yakunlari bo'yicha bozor xizmatlari hajmi 88250,3 mlrd.so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 108,7 foizni tashkil etdi.

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 28,4 foizi), transport xizmatlari (26,5 foiz), moliyaviy xizmatlar (13,7 foiz), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,3 foiz) hissasiga to'g'ri keldi.


2017 yil yanvar-oktabrda xizmatlar tarkibi, % da



Xizmatlar sohasi

Bank tizimining barqarorligini ta'minlash, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni kengaytirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori texnologik xizmatlarni rivojlantirish, texnik va texnologik yangilash borasidagi islohotlarni davom ettirilishi hisobiga hisobot davrida moliyaviy xizmatlar bo'yicha – 138,8 foiz, ta'lim xizmatlari bo'yicha – 120,6 foiz, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha – 117,5 foiz, yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha 111,7 foiz yuqori o'sish sur'atlariga erishildi.

2017 yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari o'sish sur'ati, % da




Moliyaviy xizmatlar o'sish sur'atining oshishiga, sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (88,1 %) ta'sir ko'rsatdi.

Xizmatlar sohasi

Toshkent shahrida yuqori o'rish sur'atlarini ta'minlanishi, avvalo aholi real daromadlarining o'ishi, yakuniy iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu har xil turdagi xizmatlarning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda

2017 yil 10 oy yakuni bo'yicha yuqori o'rinlarni Toshkent shahri (114,7%), Sirdaryo (107,1%), Andijon (106,6%) va Navoiy (106,5%) viloyatlari egalladi.

2017 yil yanvar-oktabrda bozor xizmatlari o'rish sur'atining hududlar bo'yicha taqqoslanishi, % da



Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Toshkent shahri (12 074,3 ming so'm), Navoiy (2 632,9 ming so'm), Toshkent (2 628,3 ming so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Davlat statistika qo'mitasi

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

Mas'ul: A.Umarov
(71) 230-80-61